

2p 1

1-OKTABR – O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:39 (66996)

2014-yil

29-sentabr



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA SADOQATIM SENG BAXSHIDA, GO‘ZAL O‘ZBEKISTONIM!

Ushbu sonda:

**SIZGA SHARAF,
SIZGA TA‘ZIM,
AZIZ MUALLIM!**

2-bet



**SOG‘INCHNING
OVOZI**

3-bet



**YUKSAK
CHO‘QQILAR
SARI**

7-bet



**SHARAFLI
KASB
MAS‘ULIYATI**

8-bet



Bizga mehri cheksiz ustozlar,
Olam kular kulgana chog‘ingiz.
Shogirdlarga tilab parvozlarni,
Gulga to‘lsin umr bog‘ingiz.

Sh. MAXMADIMOV o‘lgan suratalar

Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharafli o'qituvchilik va murabbiylikdir.

Islom KARIMOV

SIZGA SHARAF, SIZGA TA'ZIM, AZIZ MUALLIM!

Ma'lumki, yurtimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga yuksak e'tibor qaratila boshlandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi kabi hujjatlar qabul qilindiki, natijada ko'plab ta'lim muassasalari – maktab, akademik litsey va kollejlarning yangi binolari bunyod etildi. Ularning barchasi zamonaviy jihozlar, asbob-uskunalar bilan ta'minlandi.

Birgina 2004-yildan buyon umumta'lim maktablarini qurish, moddiy-texnik bazasini yaxshilash va jihozlash uchun jami 2,8 trillion so'mdan ortiq, bolalar musiqa va san'at maktablariga 2009-yildan buyon 488 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirilgani fikrimizning dalilidir.

Bugun nafaqat shaharlarda, balki barcha viloyatlarning eng chekka tuman, qishloqlarida ham ana shunday zamonaviy maktablar qad rostladi. Bu xushxabarlarni o'quvchilarimizning o'zlari zavq-shavqqa to'lib bizga bayon etishmoqda. Jumladan, Istiqolimizning 23 yilligi va yangi o'quv yili munosabati bilan Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumanidagi Bo'ston qishlog'ida 42-, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi Yangirovot qishlog'ida 18-, Andijon viloyati, Jalaquduq tumanida 19-umumta'lim maktablari yangitidan qurilib, foydalanishga topshirilgani nafaqat o'quvchilarni, balki o'qituvchilarni ham birdek quvontirgani rost. Bu kabi ro'yxatni yana va yana davom ettirishimiz mumkin.

Xizmat yuzasidan Bangladesh Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Mosud Mannan bilan uchrashganimda «O'zbekistonliklarni omadli xalq degim keladi», deya ta'kidlaganida qanchalik haq gapni aytgan edi. Qolaversa, elchi janoblarining «Ish yuzasidan dunyoning

ko'plab davlatlarida bo'ldim. Biroq O'zbekiston butkul o'zgacha. Bugun o'zbekistonlik bolalarga berilgan imkoniyatlar bilan tanishar ekanman, hayratim oshgandan oshaveradi. Yoshlar uchun qayg'uradigan, ularning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berayotgan Prezidenti bor ekan, demak bu yurtning kelajagi porloqdir», deya havas bilan aytgan gaplari hamisha qulog'im ostida jaranglab turadi.

Bugun esa yaratilayotgan sharoitlardan, berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan o'g'il-qizlarimiz sog'lom fikrlashi, keng dunyoqarashi va noyob iste'dodi bilan dunyoni lol qoldirayotgani ham sir emas. Yoshlarni shu darajaga yetishida, albatta, fidoyi ustoz va murabbiylarning hisssasi benihoyat kattadir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yo'lidagi

fidoyi mehnatlari uchun o'qituvchi va murabbiylarga har qancha tasannolar aytganki, ta'zim qilsak arziydi.

Yurtimizda 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni. Umumxalq bayrami arafasida biz ham minglab gazetxonlarimiz nomidan iste'dodli o'g'il-qizlarga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot bo'layotgan fidoyi, zahmatkash, o'z kasbining ustasi ustoz-murabbiylarga qarata: **SIZGA SHARAF, SIZGA TA'ZIM, AZIZ MUALLIM, degimiz keladi.**

BUYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN, QADRI USTOZLAR!

Feruza SOYIBJON qizi



O'qituvchi va murabbiylar timsolida el-yurtimizning kelajagi, hayot-mamotini hal qiluvchi, ta'lim va tarbiya sohasiga bamosoli jon bag'ishlayotgan qudratli kuchlarni ko'ramiz.

Bugungi erkin va ozod hayotning ma'nosi va qadr-qimmatini yoshlarning ongiga yetkazish uchun otanonalar, ustoz-murabbiylar mas'uldir.

QALBIM G'UNCHASIGA HAYOTSAN, VATAN!



Gullagan qalbimda ungan lolasan, Sahar sabosida pok shalolasan, Oymomo yo'llagan oppoq shu'lasan, Barkamol avlodga qanotsan, Vatani!

Moziy minorasin qurdi daholar, Tarixni titratar qancha Kubrolar. Obodlik qasriga bering baholar, Qalbim g'unchasiga hayotsan, Vatani!

Ko'zguing bo'ladi tunda to'lin Oy, Tilla qo'ng'irog'in egar zar bug'doy. Chanoqda oq oltin ko'rsatar chiroy, Dalarning bag'rida bayotsan, Vatani!

Shijoatda yashar umrim kunduzi, Samoga chorlaydi bilim yulduzi. Iqbol chinorida ijod ildizi, Istiqbol qasrida mayoqsan, Vatani!

Dilnoza HAMROYEVA, Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi Galaosiyo pedagogika kollejining 1-bosqich o'quvchisi



Z. MAMATQULOVA olgan suratlar

Oqdaryo tumani Yangirovot qishlog'idagi 18-umumta'lim maktabi o'quvchilarining quvonchi cheksiz.

BAYRAM SOVG'ASI BO'LDI

«Sog'lom bola yili», Mustaqilligimizning 23 yilligi, Bilimlar kuni hamda ustozlar bayramiga munosib sovg'a bo'lgan maktabimizning yangi binosi biz o'quvchilar ixtiyoriga topshirildi. Darvoqe, maktabning yangi binosi nafaqat biz o'quvchilarga, balki Yangirovot qishloq aholisiga ham shodlik ulashdi. Endilikda 420 nafar o'quvchilarni o'z bag'riga olgan keng va yorug' infxonalar, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan kompyuter xonalarida o'qish baxtiga muayassar bo'ldik.

Albatta, yaratilgan bunday sharoit va g'amxo'rliklar bizni yanada chuqur bilim olib, ilmfan cho'qqilarini zabt etishga undaydi. Mening va tengdoshlarimning baxti shundaki, hamqishloqlarim orzu qilgan bunday ta'lim muassasalari bugungi kunga kelib bizga nasib etdi.

Barcha ustozlarim – Feruza Nurmurodova, Shahlo Rustamova, Nazokat Umurzoqova, Rohila Tog'ayeva, Nodira Muhammadiyeva-ga sog'lik tilayman va bayram tabrigimni qabul qiling, deyman.

Guli TOLLIBOYEVA,
Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani
18-umumta'lim maktabining
6-«V» sinf o'quvchisi



JALAQUDUQDA YANGI MAKTAB

Jalaquduq tumanidagi 19-umumta'lim maktabi o'quvchilari va ustozlariga yangi o'quv yili qo'shaloq bayram bilan boshlandi. Bu yerda 270 o'ringa mo'ljallangan yangi o'quv binosi qurilib, foydalanishga topshirildi.

– O'quvchilarimizning asosiy qismi shaharchadagi 20-umumta'lim maktabi binosida tahsil olishardi. Bu esa o'quvchilarga ham, o'qituvchilarga ham biroz noqulaylik tug'dirardi, – deydi maktab direktori Muqimjon Abdurahmonov.

Zamonaviy uslubda qurilgan, o'quv jihozlari hamda eng so'nggi texnologiyalar bilan ta'minlangan ushbu ta'lim maskanida har tomonlama yetuk, barkamol avlod voyaga yetishiga ishonamiz.

Umidjon MAMARASULOV,
Andijon viloyati, Jalaquduq tumani

HAVASIM KELADI

Maktab davrida o'qituvchilik kasbini egallashni aksariyat o'quvchilar istashadi. Sababini bilasizmi? Chunki u ilk bora o'qituvchisiga taqlid qiladi.

Men ham

boshlang'ich sinf o'qituvchimizga juda havas qilaman. Shuning uchun uyimizda kichiklagina «sinf» tashkil qildim. Uning «o'quvchilari» hali maktabga chiqmagan mahallamiz bolakaylari. Bolalar garchi o'yin-qaroq bo'lsa-da, mashg'ulotlarni qoldirishmaydi. Qilayotgan ishimdan nafaqat otanonam, balki mahallamizning kattalari ham xursand. Chunki maktabga qadam qo'ymasdan o'q



o'qish-yozishni o'zlashtirayotgan bolajonlarga kim havas qilmaydi, deysiz. Mabodo, Xorazmga yo'lingiz tushib qolsa, bizning mahallamizga ham, albatta, kirib o'ting. Mo'juzgina sinfxonamizni o'z ko'zingiz bilan ko'rib, baho berasiz.

Madina IBODULLAYEVA,
Urganch shahridagi 5-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

ULUG' KASB

Ustozning zahmatlari bois Hazrati Navoiy, Zahiriddin Bobur, Mirzo Ulug'bek singari buyuk allomalar yetishib chiqqan.



Ustozning nomi ulug', shuning uchun ham unga otadek ulug' degan nisbat berilgan. Men tahsil olayotgan maktabda ham ana shunday ustozlar bizga ta'lim-tarbiya berishmoqda, kelgusida yurtga, Vatanga sadoqatli inson bo'lib voyaga yetishimizda ko'maklashishmoqda.

Ustoz va murabbiylarning bayrami arafasida ilm maskanimizdagi barcha o'qituvchilarni, yetakchimizni ayyom bilan chin dildan qutlayman.

Ularga mas'uliyatli kasblarida zafarlar yor bo'lsin.

G'olibjon ABDUMAJIDOV,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi 47-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Hayotda insonning faqatgina do'st deyishning o'zi kifoya qilmaydigan yaqinlari bo'ladi. Bular bolalikning beg'ubor damlariga guvoh bo'lgan sinfdoshlardir.

SOG'INCHNING OVOZI

Har gal sinfdoshlarim haqida o'ylasam, qalbimni maktab qo'ng'irog'ining jarangli sog'inchi tutadi. Bola ekanmiz, darslardan qochish, sho'xliklar qilish qiziqarli tuyulardi. Ammo bu davrning oniy ekanligi, g'animatligi xayolimizga kelmasdi. Sinf rahbarimiz Munavvar opa Jo'rayevaning har gal afsus bilan: «Nega darsdan qochdinglar, qani endi men ham o'quvchi bo'lib darslarda o'tirolsam», degan tanbehlarida naqadar teran haqiqat yotganligini his qilolmasdik.

Chorzonaning chang ko'chalarida qolib ketgan, endi hech qachon ortga qaytmaydigan bolaligim, sening beg'ubor olamingni qanchalar sog'inanimni bilsayding. Partalarga ismimizni yozayotgan shaddod Fazolatni, quvnoq Halimani, zukko Umidani bugun qanchalik sog'inanimni bilsayding.

Maktabda, yo'q-yo'q maktabdamas, yuragimning tub-tubida sog'inchning ovozi yanglig' jaranglagan qo'ng'iroq bundan o'n yetti yil muqaddam qadim Buxoroning uzoq Jondorida qolib ketgan bolalik, o'quvchilik davrimni xayolimda qayta jonlantirdi.

qo'ygan damlarimni xotirladim.

U gullar boshqacha edi. O'zidan nafaqat ifor, balki nur taratib turardi. Chunki bizning olamga bo'lgan tasavvurimiz shundayin nurli, munavvar edi. Birinchi o'qituvchimiz Rahima opa Ashurovaga o'sha shaffof dunyoimiz bila ixlos bilan qattiq bog'langan edikki, shu ixlos, mehr haqqi u kishining biz bilan qariyb tengdosh o'g'illariga ham qo'limizni ko'ksimizga qo'yib salom berardik...

Har yili o'qishning birinchi kuni qalbimda ana shunday shaffof va tiniq kayfiyatlar uyg'otadi. Har gal Chorzona qishlog'ida kechgan bolaligim olamida yashab o'tkazgan birinchi sentabrni... Xotiralar marhum ustozim Durnazar Zikirovning qo'llari bilan qulog'imdan cho'zib o'tayotgan vaqtning qadriga yetmoqlik haqida tanbeh beradi. Zero, umr, vaqt ham xuddi ortga qaytmas bolaligim kabi g'animatdir.

Har gal qishloqqa borsam, birinchi bo'lib oldimga yugurib chiqadigan jamalaksoch qo'shni qizdan so'rayman: «Maktabimiz, qalbimizga ziyo sochgan ustozlarim salomatmi?!» Sinfdoshim Mohidilning tili biyron qizalog'iga termularkanman, ichimdan shivirlayman: bu pokiza damlarni bizdan-da ko'p beamnon surgaysan. Biz qadriga yetmay VAQT suvlarida oqizib qo'ygan bolaligimning qadriga yetgaysan. Shu qo'ng'iroq ovozi, bugun xumori tutib men qo'msayotgan sog'inch ovozi uning g'animatligini anglab yetgaysan, bolajon! Bu o'quvchilik damlaring, beg'ubor kunlaring senga muborak bo'lsin!

Sanobar MEHMONOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

EZGU MAQSADLAR MASKANI

Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rish zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil fikrlay oladigan qobiliyatli insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim.

Ana shunday ta'lim maskanlaridan biri Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 72-ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan ixtisoslashtirilgan maktabdir.

Mazkur o'quv dargohi ilk faoliyatini 1992-yil 15 nafar pedagog-xodim 113 nafar o'quvchiga ta'lim-tarbiya berishdan boshladi. O'tgan 22 yil mobaynida bu dargohda O'zbekiston xalq o'qituvchisi Tursunboy Egamberdiyev, II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibi Akbar Qalandarov, «Do'stlik» ordeni sohibi Kim Iskra kabi fidoyi murabbiylar yosh avlodga saboq bergan.

Hozirgi vaqtda ushbu maskanda 38 nafar pedagog-xodimlar 678 nafar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya bermoqdalar. O'qituvchilar orasida Xalq ta'limi

a'lochilari – matematika fani o'qituvchisi Abduvali Mamatqulov, informatika fani o'qituvchisi Sayyora Mahamatqulova, rus tili fani o'qituvchisi Nilufar Usmonova, ona tili va adabiyoti fanlari o'qituvchisi Nazokat Dushayeva, tarix fani o'qituvchisi Farhod Sultonov, «Shuhrat» medali sohibi, fizika fani o'qituvchisi Muyassar Ikromova kabi yetuk mutaxassislar borligi quvonarlidir.

Maktab o'quvchilari tuman, viloyat va respublika ko'rik-tanlovlari, sport musobaqalari va «Bilimlar bellashuvlari»da faol qatnashib, faxrli o'rinlarni muntazam egallab kelmoqdalar. Jumladan, Respublika «Bilimlar bellashuvi»da 8-sinf o'quvchilari Dilshod

Salimov tarix fanidan, Umid Tojiboyev infotmatika fanidan faxrli o'rinlarni egallashdi. Ayniqsa, «Huquq bilimdonlari» respublika tanlovida 8-sinf o'quvchisi Karomat Jo'rayevaning g'olib bo'lgani barchaga birdek quvonch bag'ishladi.

Yoshlarni zamon talabi darajasidagi bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish shu kunning muhim vazifasidir. Zero, niholga yaxshi parvarish berilsagina u baquvvat chinorga aylanadi.

Mahbuba HOJIYEVA,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani
XTMFMT va TE bo'limi inspektori
Nurbek QIDIRALIYEV

Elda «Ustoz otangdek ulug'» degan maqol bekorga aytilmagan. Ustozlarning ibratli pandlarini qalbiga jo qilgan shogird hech qachon kam bo'lmaydi.

MEHR NURI YOG'ILGAN KO'ZLAR

Hayotda o'z o'rnini topishga intilgan bugungi yoshlarimizning bir necha tilni mukammal bilishi, ertangi kunimiz egalari eng katta yutug'idir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 178-Ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida ham fidoyi ustozlar talaygina.

– Menga ustozim Mahzuna opa Toshmuhammedova barcha fanlardan a'lo baholarga o'qishimga o'zlarining katta hissalarini qo'shayaptilar, – deydi 2-«B» sinf o'quvchisi Jahongir Mahmudov faxrlanib. – Men ham ularning ishonchlarini oqlab, yanada ko'proq o'qishga harakat qilyapman.

Shu maktabning 5-«V» sinf o'quvchilari Shahron Xo'janazarov, Anushervon Nuraliyev



ham o'zlarining sevimli ustozlari Gulnora Karatoyeva, Barno Sotivoldiyeva haqida iliq fikrlar bildirishdi.

Ustozlarning nur yog'ilib turgan ko'zlariga tikilib, qalbingizni hech qachon mehr nuri tark etmasin, degimiz keldi.

Biz o'quvchilarning har birida bayram munosabati bilan o'z ustoziga aytadigan dil so'zlari borligini ularning ilmga chanqoq ko'zlaridan ilg'adik.

AXTAMQULI



Ustoz... kuyunchak va mehribon, o'quvchilariga bilim va ziyo taratib tolmaydi, hatto darsdan keyin ham shogirdlarini bo'sh o'tirishiga yo'l qo'ymaydi. Chunki u o'quvchilarini kelgusida yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini istaydi-da.

QORAQALPOQ YOSHLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ana shunday jonkuyar ustozlar ko'p. Bugun ushbu vohada talaygina tengdoshlarimizga bilim va hunar o'rgatayotgan ustozlar hamda ularning shogirdlari haqida so'z yuritmoqchimiz. Bu haqda Respublika «Barkamol avlod» bolalar markazi direktori Rapatdin Tanirbergenov bilan suhbatlashib, quyidagilarni bilib oldik:

– Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda 1 ta Respublika va 16 ta tuman va shahar «Barkamol avlod» bolalar markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Markazlardagi jami 294 ta to'garakda 6339 nafar o'quvchilar qamrab olingan bo'lib, ularga 366 nafar pedagog kadrlar kasb-hunar sirlarini o'rgatishmoqda.



To'garak a'zolari respublika miqyosida tashkillashtirilgan barcha bayram tadbirlarida faol ishtirok etib kelishmoqda.

Jumladan, «Bolalar va suv» ekologiya festivalining respublika bosqichida markazimizning «Yosh tabiatchilar» jamoasi III o'rinni egalladi.

Shuningdek, markazimizda «Qomusim baxsh etar quvonch-u shodlik, undan yurtda kamolot, ravnaq, obodlik» shiori ostida fotosuratlar ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Ko'rik-tanlovga tuman, shahar «Barkamol avlod» bolalar markazlaridagi «Yosh ftohavaskor» to'garagi qatnashchilari va umumta'lim maktablarining havaskor fotoijodkorlari



ishtirok etdi. Tanlovga kuchli tayyorgarlik bilan kelgan Mo'ynoq tumani «Barkamol avlod» bolalar markazi o'quvchilari I o'rinni egallab, Toshkent shahrida o'tkazilgan ko'rik-tanlovning Respublika bosqichida esa jamoaviy hisobda III o'rinni egallashgani, bolalarni yanada izlanishlariga, intilishlariga qanot bag'ishladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mana, siz qoraqalpog' yoshlarining bugungi kundagi yutuqlari haqida qisman tanishdingiz. Kelgusida ustoz va shogirdlarning orzulari, intilishlari xususida batafsil hikoya qilamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

To my teacher
(O'qituvchimga)

Lesson 4

Tests

T is for Talented that you surely are
E is for Explaining so patiently,
A is for the Ability to make the class fun
C is for Correcting us when we were wrong.
H is for Helping us in every way
E is for Encouraging us to do our best,
R is for Rare, there is only one of you!



My lovely and nice teacher you are the kindest person in the world because you taught me how to write and read, how to count and paint. To think only good things and help to everyone, I couldn't learn myself without you Thank you very much for your knowledge and kindness I'm grateful for you all the time!

CROSSWORD

9
5
6
7
1
2
3
4
8

V
E
G
E
T
A
B
L
E
S

Find Nouns
(Otlarni toping)

Read the sentences and write down which word you think is the noun.

1. Winter is very cold. Winter
2. The man was tall. _____
3. Close the gate. _____
4. The car moved fast. _____
5. School started early. _____
6. Catch the ball. _____
7. The doctor worked fast. _____
8. Open the door. _____
9. The girl was happy. _____
10. Look at the moon. _____



Gulruh SOLIYEVA

«Education is the key to success in life and teachers make a lasting impact in the lives of their students»
Solomon ORTIZ

Boys and girls ... in the garden.


- a) is
- b) are
- c) am

The cat ... in the box.

- a) are
- b) is
- c) am

I ... 14 years old.

- a) is
- b) am
- c) are




– What time is it now? – It is 6²⁵.

- a) Twenty five minutes to six.
- b) Twenty five minutes past seven.
- c) Twenty five minutes past six.

– Are you a doctor?

- a) No, I am not.
- b) No, we are not.
- c) No, they are not.



Gulnora TOSHQULOVA
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi
7-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

The prescription on the door
(Eshikdagi ro'yxat)

Once there lived a farmer. He had a wife and a lot of children. From early morning till late at night he worked on his field. His wife labored about the house, the garden and the orchard. The children helped their parents as much as they could.

One day the farmer's wife fell ill. The doctor was sent for. The doctor came to examine the patient. He felt her pulse, examined her throat, felt her heart and lungs and diagnosed the case of it as a flu. The doctor asked for a piece of paper to write the prescription on. But there was no paper in the house, so the farmer went to his neighbor for some paper and he was absent for a long time. The doctor waited for some time but he was short of time and he took a piece of coal and wrote prescription on the door. When the farmer returned the doctor was gone. As neither the farmer nor his wife, nor their children could write and there was no one to copy out the prescription the farmer took the door off and carried it to the chemists. This way the farmer had the prescription made up and his wife took the medicine and recovered soon.



Vocabulary:

labor – mehnat qilmoq; as much as they could – qo'llaridan kelgancha;
diagnose – tashxis qo'yimoq; flu – gripp; piece of paper – qog'oz bo'lagi
neighbor – qo'shni; coal – ko'mir; carry – olib bormoq; chemist – dorixonona
medicine – dori; recover – tuzalib ketmoq.

Riddles
(Topishmoqlar)

What begins with T, ends with T and has Tea in it?



What has to be broken before you can use it?

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

SHUKRONALIK HISSI



Bugun qaysi sohani olib qaramang, informatika bilan chambarchas bog'langan. Hatto temir yo'llarda tezyurur poezdlarimiz ham

kompyuter orqali boshqariladi.

Ayni kunda kompyuter kirib bormagan xonadonni uchratish qiyin. Ota-onalar bolalarini kompyuterda qanday ishlayotganini, albatta, nazorat qilib turishlari kerak. Bu borada "ZiyoNET" tarmog'i katta imkoniyatlar eshigini ochganini alohida ta'kidlash joiz. Unda o'quvchilar uchun maxsus dasturlar, ota-onalar uchun ham mo'ljallangan maxsus portallar bor.

Bugungi o'quvchi donoligi, zukkoligi bilan kishini hayratga solmoqda. Men ana shunday iqtidorli, izlanuvchan, ilmga chanqoq o'g'il-qizlarga ta'lim-tarbiya berayotganimdan faxrlanaman va qalbmida hamisha shukronalik hissi jo'sh uradi.

Baxtiyor KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 90-umumta'lim maktabi informatika fani o'qituvchisi

USTOZIMDIR IKKINCHI ONAM

Bizlargadir hamisha hamdam, O'rgatdilar harf yozishni ham. Barcha ilm qalbimizda jam, Ustozimdir ikkinchi onam.

Men ularga havas qilaman, Balki yaxshi shogird bo'laman. She'rlar yozib zavqqa to'laman, Ustozimdir ikkinchi onam.

Mahliyo KAMOLIDDINOVA,
Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, 15-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



SIZGA TA'ZIM



Ustozimdan o'rgandim, Qo'lda qalam tutishni. Maktabda, jamoatda, O'zni qanday tutishni.

Bergan sabog'ingizni, Yodda saqlashim lozim. Mehringiz tog'dek azim, Sizga qilaman ta'zim.

E'zoza USMONXO'JAYEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

Qo'l telefonim jiringlab qoldi, quloq tutsam, ko'p yil bir maktabda ishlab hozirda nafaqada bo'lgan kasbdoshim Marhabo Qanoatova: «Peterburgdan gapirayapman», dedi. Odatdagi salom-alikdan so'ng: «Menga qizingiz Gulnozaning telefon raqamini bersangiz, gap shundaki, o'g'lim G'olibjon Peterburgdagi Xalqaro aviatsiya oliy o'quv bilim yurtiga o'qishga kirdi. O'g'lim shunchalar xursandki, «Ayajon, ustozim Gulnoza opa bilan tezroq bog'laning, quvonchimni ular bilan bo'lishib o'z minnatdorchiligimni aytib, bayram bilan tabriklay», debdi.

QIZLARIM – IZDOSHLARIM

Men bunday xabardan nihoyatda xursand bo'ldim. Chunki qizlarim – Feruza, Gulnoza va Aziza Yahyoyevalar mening kasbimni davom ettirib, ustoz degan sharafli nomni ulug'lab kelayotganidan boshim ko'kka yetdi.

Men o'zim ham uzoq yillar Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 8-umumta'lim maktabida o'quvchilarga rus tili va adabiyoti fanidan saboq berdim. Hozir nafaqa gashtini surib, uyda nabiralaringa ustozlik qilmoqdaman.

So'zim oxirida barcha ustozlarni bayram bilan tabriklayman.

Muazzam NOROVA,
faxriy o'qituvchi

DIL SO'ZLARIM BOR

Chertib ko'rdim qalbm torini, Sizga aytar so'zlarim bisyor. Shoirmasman, lekin qalbmida Sizga aytar dil so'zlarim bor.

Balki sizsiz moviy osmonda, Nur ziyosin taratgan Quyosh. Balki sizsiz zulmat ichra nur, Bahra olar har ko'ngil, har yosh.

Siz o'zingiz buyuk asarning, Nomi o'chmas zo'r muallifi. Balki sizsiz nurli dunyoning, Serjilosi go'zal ta'rifi.

Saboq bergan hayotbaxsh inson, Taraqqiyot asoschisiz. Ko'ngillarga baxsh etib ziyo, Hayotimiz yo'lbohschisiz!

Zuhra QALANDAROVA,
Toshkent davlat diplomatiya universiteti qoshidagi akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi

O'QUVCHILARIM BILAN FAXRLANAMAN

Bugungi kunda mamlakatimizda har tomonlamo sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilib, ularga keng imkoniyatlar, barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.



Men faoliyat yuritayotgan ta'lim maskanida ham barcha sharoitlar muhayyo etilgan. O'quvchilarimiz nafaqat viloyat yoki respublika, balki xalqaro miqyosdagi ko'rik-tanlovlarda ham munosib ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelishmoqda. Maktabimiz o'quvchisi Nilufar Otaqulova fan olimpiadasining chizmachilik yo'nalishida viloyat bosqichida faxrli 1-o'rinni egallagan bo'lsa, Rossiyaning Moskva va Yekaterinburg shaharlarida o'tkazilgan «Sayyoramiz taqdiri mening qo'limda» xalqaro festivalida ham maktabimiz o'quvchilarining bir guruhi sovrindorlar

safidan joy olishi. Xususan, 3-«A» sinf o'quvchisi Feruza Otaqulova, 4-«A» sinf o'quvchilari Muyassar Murtazoyeva, Muslima Nurmatova, 5-«A» sinf o'quvchilari Malika Muhiddinova, Yulduz Yusupova, 5-«B» sinf o'quvchisi Azizbek Fayziyev, 6-«A» sinf o'quvchisi Diyora Hamiyeva, 7-«B» sinf o'quvchisi Zarina Nurmatova hamda 9-«B» sinf o'quvchisi Charos Otashovaning xalqaro festivalning maxsus faxriy yorliq va sertifikatlari bilan taqdirlangani barchamizni juda quvontirdi.

Ta'kidlash joizki, bu kabi yutuqlar respublikamizda yosh iste'dodlarga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yaqqol namunasidir.

Muzaffar BEGMATOV,
Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabining tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi



OMON BO'LING, MUALLIMLAR

Ezgulikdan so'zlaydilar, Bizni har dam o'ylaydilar. Bilimlarin berar doim Tili shirin, so'zga boyim Omon bo'ling, muallimlar Bekor ketmas bu ta'limlar.



Siz borsizki bizlar baxtli Yosh yuraklar o'tli, ahdli. Shogird bo'lib yuribmiz shod, Yaxshilikni aylaymiz yod. Omon bo'ling, muallimlar Bekor ketmas bu ta'limlar.

Tug'ishganday mehribonsiz, Bilim bergan bilimdonsiz. Siz tufayli yoshlar shodlar Aziz, dono, ulug' zotlar. Sog'lom yuring, muallimlar Qalbdan qolur bu ta'limlar.

Shogirdlarni o'ylaydilar, Yaxshilikdan so'ylaydilar. Bilimlarin berar doim, Nutqi shirin, so'zi boyim Omon bo'ling, muallimlar. Bizlarga yor bu ta'limlar.

Dilfuza MAHMUDOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani, 16-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

INTERNET TARMOG'IDAGI IQTIDORLI YOSHLAR

Poytaxtdagi «Turkiston» saroyida «InfoCOM – 2014» axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligi doirasida yoshlar o'rtasida «MIT.uz» milliy internet tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan qator vazirlik, idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan II milliy internet tanlovi yoshlarni globallashtirish sharoitida axborot xurujlaridan himoya qilish, ularning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini oshirish, shuningdek, amalga oshirilayotgan islohotlarni internet tarmog'i orqali keng yoritishda yoshlar ishtirokini kengaytirishga qaratilgan.

Tanlovda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 1300 nafarga yaqin yoshlar qatnashdi. Taqdim etilgan saytlarning 60 foizdan ortig'i shu yil ishga tushirilgan.

Tanlovga kelib tushgan ijodiy ishlarning eng yaxshilari to'qqizta asosiy va uchta qo'shimcha nominatsiya bo'yicha tanlab olindi. Chunonchi, «O'zbekistonning boy madaniyati, san'ati, tarixi va mustaqillik g'oyasini aks ettiradigan eng yaxshi sayt», «Mahalla, qishloq va shaharning eng yaxshi fotosurati», «O'zbek mumtoz she'riyati va adabiyotini targ'ib qiluvchi va yoshlar ishtirokida tayyorlangan eng yaxshi rolik», «O'zbekistonning iqtisodiy va sayyohlik salohiyatini aks ettiruvchi eng yaxshi sayt», «Eng yaxshi yangiliklar sayti», «Foydalanuvchilar fikri bo'yicha eng yaxshi sayt» va boshqa nominatsiyalar bo'yicha uchtadan sovrindor aniqlandi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zAning www.uz.uz sayti internet-tanlovning «Ikki tilda yaratilgan eng yaxshi sayt» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

– Joriy yilgi tanlovda ishtirokchilar soni va taqdim etilgan ishlar sifati bo'yicha o'tgan yilgiga nisbatan sezilarli o'sish kuzatildi, – deydi «MIT.uz» milliy internet tanlovi hay'at a'zosi Alisher Tojiyev. – Tanlov ishtirokchilarining faoliyatini diqqat bilan kuzatib boramiz va ularning loyihalarini yanada takomillashtirishga ko'maklashamiz.

Tadbir doirasida ishtirokchilar va g'oliblarning yuzdan ortiq fotosurati, shuningdek, yosh dasturchilarning eng yaxshi veb-ishlanmalari va dasturiy ta'minoti ko'rgazmasi ham bo'lib o'tdi.

Milliy internet tanlovi g'olib hamda sovrindorlariga diplom va mukofotlar topshirildi.

J. KAMOL o'g'li



Vatanimiz mustaqilligining 23 yilligi arafasida Prezidentimiz Islom Karimovning Farmoniga binoan mamlakatimizda har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish ishiga qo'shgan katta hisssasi hamda yoshlarni Vatanga muhabbat, Istiqlol g'oyalariga sadoqat, sog'lom turmush tarzi tamoyillari ruhida tarbiyalashdagi xizmatlari uchun Respublika oliy sport mahorati maktabining stol tennis bo'yicha murabbiyasi Saida MAHMUDOVA «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlandi.

YUKSAK CHO'QQILAR SARI

– Kamtarona mehnatlarim tufayli Vatanimizning yuksak mukofoti bilan taqdirlanganim zimmamdagi mas'uliyatni yanada oshiradi, – deydi Saida opa Mahmudova. – Prezidentimiz rahnamoligida sport vositasida sog'lom va barkamol avlodni shakllantirishga qaratilayotgan ulkan e'tibor barcha sport turlari kabi stol tennisning ham jadal rivojlanishida muhim omil bo'lmoqda.

Saida opa sportchilar oilasida voyaga yetdi. Otasi Saidikrom Burxonxo'jayev ko'p yillar stol tennis bo'yicha murabbiylik faoliyati bilan shug'ullangan. Oiladagi muhit Saida va singlisi Nodiraning sportchi bo'lishida katta rol o'ynadi. Hozir Nodira qator xalqaro musobaqalarda g'alaba qozonib kelayotgan umidli sportchilardan.

Saida to'qqiz yoshidan taniqli murabbiy Vitaliy Kuzmin qo'l ostida stol tennis bilan shug'ullana boshladi. Shahar, mamlakat chempionatlarida toblandi.

Mahoratini yil sayin oshirib borgan Saida bugun eng ko'p sovringa ega bo'lgan sportchilarimizdan. U Buxoro va Samarqand viloyatlarida o'tgan Universiadalarda g'olibi, ketma-ket ikki marta yoshlar o'rtasida jahon chempioni bo'ldi, Siena shahrining «Libertas Siena» jamoasi tarkibida Italiya chempionatining oltin medallarini qo'lga kiritdi. Ko'p karra O'zbekiston chempioni. O'ndan ziyod davlatda o'tgan xalqaro turnirlarda shohsupaga ko'tarildi.

U yetti yildan buyon Respublika oliy sport mahorati maktabida yosh sportchilarga stol tennis sirlarini o'rgatib kelmoqda. Uning qo'l ostida shug'ullanayotgan Madina Sharipova, Regina Kim, Farog'at Azizxo'jayeva, Saida Kazakova, Nodira

Burxonxo'jayeva, Ibrohim Sultonov hamda Amir Tohirjonov kabi mahoratli tennischilar turli nufuzli musobaqalarda munosib ishtirok etib kelmoqda.

– Ustozimiz mashg'ulotlar davomida stol tennisning nozik jihatlari – sezgirlik va chaqqonlik, tez qaror qabul qila olishni o'rgatadi, – deydi xalqaro musobaqalar g'olibi Islom Sultonov. – Bu xislatlar sportchi uchun juda muhim. Men kelajakda ustozim kabi nufuzli musobaqalarda g'olib chiqib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarishga harakat qilaman.

Inson fe'l-atvoridagi eng yaxshi xislatlar, avvalo, oila bag'rida kurtak yozadi. Bolalikdan sport bilan shug'ullanishga o'rgangan bola bir umr sportga oshno tutinadi. Har bir o'g'il-qizning ertaga qanday inson bo'lib voyaga yetishi, iqtidorining shakllanishi, nimalarga qiziqishi oiladagi tarbiya bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi kunda Saida turmush o'rtog'i, professional bokschi Dilshod Mahmudov bilan farzandlari – yetti yoshli Bilol va besh yoshli Robiyaning sport bilan muntazam shug'ullanishiga yetarli sharoit yaratib bergan. Bilol «Paxtakor» futbol maktabida mashg'ulotlar olib borayotgan bo'lsa, Robiya onasidan stol tennis sirlarini puxta o'rganayotir.

Ha, mohir sportchi, «Do'stlik» ordeni sohibasi Saida Mahmudova murabbiya sifatida ham shogirdlari bilan birga yuksak cho'qqilarni zabt etishi shubhasiz. Buning uchun yurtimizda barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Jamshid MATYOQUBOV

GILAMDA MAHALLA PAHLAVONLARI

Yaqinda «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi ijrosi doirasida «Mahalla» xayriya jamoat fondi, qator tashkilotlar bilan hamkorlikda Toshkent shahridagi «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasining kurash arenasida kurash bo'yicha mahalla yoshlari o'rtasida an'anaviy «Mahallamiz pahlavonlari» musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda yurtimizning barcha hududlaridan kelgan o'g'il-qizlar olti vazn toifasida g'oliblik uchun kuch sinashishdi.

E'tirof etish joizki, an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Mahallamiz pahlavonlari» musobaqasining joriy yilgi bosqichlarida yami 150 ming nafardan ziyod yosh polvonlar qatnashishdi.

Musobaqaning o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarida Buxoro viloyati vakili 55 kg. vaznda M. Hikmatov, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 50 kg. vaznda

A. Adirbekov va Toshkent viloyatidan 46 kg. vaznda Z. O'rmonaliyev oltin medalni qo'lga kiritdi. Qizlar bahsida esa Samarqanddan kelgan 48 kg. vaznda G. Keldiyorova, Jizzax vakilasi 44 kg. vaznda F. Murodova hamda namanganlik 52 kg. vaznda N. Vohidova barcha raqibalaridan ustun kelib, shohsupaning yuqori pog'onasini egalladi.

Umumjamaa hisobida Buxoro viloyati 1-o'rin, Jizzax viloyati 2-o'rin va Farg'ona viloyati jamoasi 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Mana shunday musobaqalar yoshlar o'rtasida kurashni ommalashtirish, ularni sog'lom turmush tarziga keng jalb etish, jismoniy tarbiya va sportni tobora ommalashishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Shoh MUHAMMAD



O'qituvchilik kasbi kishidan sabr-toqatni, bag'rikenglikni, fidoyilikni talab etadi. O'quvchilarning hurmatini qozonish uchun ularning ko'ngliga yo'l topa bilish lozim.

Ana shunday ustozlardan biri Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 40-aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, oliy toifali pedagog **Latofat opa Botirova**.



SHARAFLI KASB MAS'ULIYATI

Mana 25 yildirki, ustoz yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Talabchan, kezi kelganda onadek mehribon bu ustozning sobiq o'quvchilari bugungi kunda o'z kasbining ustalari.

– Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy talablarni asosida ishlaydigan yoshlarni tarbiyalashimiz, voyaga yetkazishimiz zarur, – deydi Latofatxon Botirova. – Har gal o'quvchilarning yutuqlarini eshitganimda shu kasbni tanlab adashmaganimdan quvonaman.

Oliy toifali o'qituvchi, Xalq ta'limi a'lochisi, maktab direktori Bahodir aka Mirzayev ham ustoz haqida to'liqlanib gapirdi:

– Latofatxon o'z kasbini juda yaxshi ko'radi. Shuning uchun ham uning o'quvchilari ilmga chanqoq, zukko o'g'il-qizlar.

Biz ham Latofatxon opadek mehridaryo ustozlarning sharaflari va mas'uliyatli kasbida omad tilaymiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Aziz kichik bekajonlar, bugun sizlarga ajoyib quymoqlarni tayyorlashni o'rgatamiz.

BAYRAM DASTURXONINGIZGA

Kerakli masalliqlar: 2 stakan un, shuncha miqdorda sut, 2 dona tuxum, 2 qoshiq o'simlik yog'i, 2 osh qoshiqdan kakao va shakar, bir chimdım tuz.

Qaymoqli krem uchun: 200 gramm qaymoq, 100 gramm qand upasi.

Tayyorlanishi:

Dastlab tuxumni yaxshilab atalab, unga sut qo'shiladi. So'ngra shakar, tuz, un solib yaxshilab aralashiriladi. E'tibor bering, suyuq xamir qumoq bo'lib qolmasligi kerak. O'simlik yog'i solgach, aralashmadan ikki cho'mich alohida oling-da, unga kakao kukunidan qo'shing.

Qizdirilgan tovani yog'lab, quymoq xamiridan quyning. Bir tomoni qizargunga qadar ikkinchi tarafiga kakao'li xamirdan chiziqlar tushiring va ikkinchi tomonini o'giring.

Mikser yordamida qaymoq va qand upasini ko'pirtirib, quymoqlar ichiga birma-bir quyib chiqing.

Tayyor quymoqlarni likopchaga solib, qahva yoki shirin choy bilan dasturxonaga tortishingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

Nargiza ABDULLAYEVA

USTOZNING KO'ZLARIGA BOQ...

Har gal o'qituvchi va murabbiylar bayrami arafasida biz, o'quvchilar o'qituvchilarimizni xursand qilishga, ularning ko'nglini ko'tarishga harakat qilamiz. Ustozimiz Gulshod opa Gadoyevani sevimli gazetamiz orqali tabriklashni ko'nglimizga tugib qo'ygandik. Gulshod opa bizga saboq berish bilan birga, onalardek mehribon hamdir. Ularining o'g'itlarini hamisha yodimizda saqlaymiz. Dil izhorlarimizni esa quyidagi satrlarga ko'chirdik:

*Fidoyi ustozning ko'zlariga boq,
Yoniq nigohida darsin o'qiysan.
Yo'ling yorituvchi eng nurli chiroq,
Sha'niga yurakdan tahsin o'qiysan.*



Gulshod Gadoyeva



Gulbahor



Gulchiroy


Gulbahor va Gulchiroy JABBOROVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf o'quvchilari

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

TASVIRLI MUAMMONOMA

Chizmaning o'ng tomonidagi belgilarni «kalit» dan mos harflarni aniqlang va bo'sh kataklarga yozish bilan jumboqni hal eting. Bunda yozganlaringizni qatorlar bo'yicha o'qish bilan fors mumtoz, mutaffakir shoiri Sa'diy Sheroyinning ustoz haqida yozib qoldirgan hikmatli so'zini bilib olasiz.

Husan ORIPOV tuzdi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'gli

Manzillimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 30051
Buyurtma – S 1001